

awlaq bolıwǵa shaqıradı. Dramanın aqırı Hákimniyazdıń ayanıshlı táǵdiri menen juwmaqlanadı. S.Jumagulov óz xalqın shın berip súyiwi, onı kózqarashıǵınday asırawı yaǵnıy qaraqalpaq xalqınıń er júrekligi, patriot ekenligi oqıwshını bir degende júrek tórinen orın alıwshı bul draması tereń watansúywshilik ideyası menen suwǵarılǵan.

Juwmaqlap aytqanda, jazıwshı hám dramaturg S.Jumagulov óziniń shıǵarmaları arqalı hár bir insannıń kewlinen orın ala alǵan. Onıń shıǵarmalarında yumorlıq

xarakter basım bolǵanı menen bul shıǵarmasına ulıwma basqa tárepten alıp qaraǵan. Ondaǵı berilgen obrazlar arqalı súwretlegen dáwirin qanshelli dárejede qıynshılıǵın, sonıń menen birge hár bir insandı watanın súyip jasawǵa úyretiwge iyermeleydi. Hár bir ósip kiyatırǵan jas áwlad óziniń watanına sadıq, jankúyer sıpatında tárbiyalansa, buni usınday shıǵarmalar arqalı sana-sezimine sińdirilse, álbette, biz gózlegen maqsetimizge erisemiz.

Ádebiyatlar

1. Járımbetov Q. Ádebiyattanıwdan sabaqlar. –Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 2012.
2. Жумағұлов С. Қырық жылдан соңғы бір күн. –Нөкіс: “Қарақалпақстан”, 1992.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 2004.
4. Ziyoyev H Istiqlol-ma’naviyat negizi. –T.: «Ma’naviyat», 1999.

РЕЗЮМЕ. Мақоллада қарақалпақ адабиятында драма соhasida о‘zining nayob asarlari bilan taniqli S.Jumag‘ulovning “Qiriq yildan songi bir kun...” dramasi dagi vatanparvarlik g‘oyalari asosida yoshlarni ijtimoiy foalligini oshirish, obrazlarning qo‘llanish shebarligi haqida so‘z etiladi. S.Jumag‘ulovning dramatik asarlaridagi vatanparvarlik g‘oyalari qoraqalpoq adabiyotshunosligida tadqiqot qilishni kutib turgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu maqolada biz dramaturgning dramatik asaridagi obrazlarni yoritish mahorati, asar orqali insonning vatanga bo‘lgan muhabbati va badiiylik xizmati haqida so‘z etiladi.

РЕЗЮМЕ. В этой статье мы поговорим о повышении социальной активности молодежи и умении использовать образы на основе патриотических идей С.Жумагулова, известного своими выдающимися произведениями в области драматургии в каракалпакской литературе. Идеи патриотизма творчестве С.Жумагулова являются одной из проблем, ожидающих своего исследования в каракалпакском литературоведении. Также говорится о способности драматурга освещать характеры драматических произведений, любви человека к Родине и художественном служении через произведение.

SUMMARY. In this article, we will talk about the skill of using images to increase the social activity of young people based on the patriotic ideas of S.Jumagulov, who is known for wonderful works in the field of dramaturgy in Karakalpak literature. The ideas of patriotism in S.Jumagulov’s dramatic works are one of the issues waiting to be researched in Karakalpak literature. In this article, we will talk about the dramatist’s ability to illuminate the characters in his dramatic works, the love of a person for the homeland and artistic service through the work.

Maxtumqulining 300 yilligi oldidan

MAXTUMQULI - SHEKSPIRI TURKMANNING

Maxtumquli – Shekspiri turkmanning,

Gomer, Gyote – so‘zda piri turkmanning.[1]

G.Quramboyeva – filologiya fanlari doktori

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Tayanch so‘zlar: shoir, ta’sir, she’r, badiiy tarjima, badiiy uslub, til, ilhom, meros, ijtimoiy muhit, olimlar.

Ключевые слова: поэт, влияние, стихотворение, художественный перевод, художественный стиль, язык, вдохновение, наследие, социальная среда, учёные.

Key words: poet, influence, poetry, literary translation, artistic style, language, inspiration, heritage, social environment, scholars.

XVIII asrda yashab ijod etgan turkman xalqining buyuk mutafakkir shoiri Maxtumquli Firog‘iy adabiy merosi butun insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Mana uch asrdirki, shoir she’riyati muxlislar, ijod ahli, olimlar, yozuvchi va dramaturglar, jamiki kitobxonlarning qayta-qayta murojaat qiladigan ilhom bulog‘iga aylangan. Bu ummondan qanchadan-qancha xalqlar, avlodlar chanqog‘i qondirilmogda. Shoirning donishmandlikka yo‘g‘rilgan she’riyati insoniyatni komillikka etaklaydi. Maxtumqulini o‘qigan kitobxon borki, ma’nan va ruhan poklanadi.

Turkiy tilli adabiyotlarda shoir nomi hurmat bilan tilga olinadi, asarlari qo‘lma-qo‘l o‘qiladi, she’rlari qo‘shiqlarga aylangan. O‘zbek xalqi orasida ham bu nomni eshitmagan, she’rlaridan bexabar, qo‘shiqlarini tinglab zavqlanmaganlar kam topilsa kerak. Shoir she’rlarining uslubli sodda, tili xalqona. Shuning uchun ham ayniqsa, xorazmlik xushovoz xonanda Komiljon Otaniyozov ijrosidagi Maxtumquli she’rlariga bastalangan kuy qo‘shiqlar xalqimizga yod bo‘lib ketgan.

Shoir ijodining birinchi marta o‘zbek tiliga o‘girilib, kitob shaklida bosilib chiqqaniga yarim asrdan oshdi. So‘nggi yillarda bu tarjimalar bir necha marta qayta bosildi. Mustaqillik yillarida Maxtumquli she’rlarining yangi tarjimonlari paydo bo‘ldi. Shoir she’riyati Jumaniyoz Sharipov, Muzaffar Ahmad, Olim To‘rayev, Mirzo Kenjabek, Jumaniyoz Jabborov, Muxammad Ali, Ergash Ochilov, Abdumomin Jumayev, Rustam Jabbor, Jumanazar Zulpiyevlar tomonidan o‘zbekchallashtirilgan. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotining bilimdoni, olim va tarjimon Ergash Ochilovning etti yuzdan ortiq Maxtumquli she’rlarini o‘z ichiga olgan “Bulbul nolasi” kitobi shu paytgacha nashr etilgan tarjima asarlarning hajanman eng kattasi hisoblanadi. Maxtumquli adabiy merosi E.Ochilov

tomonidan to‘laligicha o‘zbek tiliga o‘girilgani o‘zbek va turkman tarjima adabiyotida o‘ziga xos voqea bo‘lgani ham haqiqat. Muallifning kitobga yozgan “Maxtumquli ijodi O‘zbekistonda” nomli so‘zboshisi shoir hayoti va adabiy merosi haqida to‘liq tasavvur beradi. Unda shoir yashagan davr, ijtimoiy muhit, mutafakkir ijodining tarjimonlari, ilmiy-tadqiqotlar olib borgan qator olimlar asarlaridan iqtiboslar keltirilgan. Olimga “Maxtumquli Firog‘iy” xalqaro mukofoti berilgani tarjimonning turkman adabiyotidan amalga oshirgan tarjimalari davlat darajasida baholanganidir.

Maxtumquliga bag‘ishlab o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida ko‘plab she’rlar yozilgan. Bu jarayon, ayniqsa, o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida muvaffaqiyatli davom etayotgani ijobiy holat. Masalan, o‘zbek dramaturgiyasida Maxtumquliga bag‘ishlangan sahna asari yaratildi. Xorazmlik dramaturg Qurbon Muhammadrizo Maxtumquli haqida “G‘urbatda g‘arib...” p‘esasini yozdi va asar muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Dramaning radio montaji tayyorlanib, bir necha marta muxlislariga taqdim etildi. Shuningdek, B. Kerboboyevning “Maxtumquli” dramasi mashhur adib K. Yashin tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan.

Maxtumquli ijodi to‘g‘risida o‘zbek adabiyotshunoslari faqat maqolalargina emas, ilmiy asarlar (Hamdam Abdullayev. Maxtumquli va o‘zbek adabiy muhiti. Toshkent; Karimboy Quramboyev. Maxtumquli she’riyati O‘zbekistonda. Toshkent; Kewil kewilden suw isher. Nukus; Maxtumquli – ilhom chashmasi. Toshkent; Bahodir Karim. Maxtumquli – insoniyat shoiri. Toshkent.) ham yozishdi.

Filologiya fanlari doktori, professor Karimboy Quramboyev O'zbekistonda salkam yarim asr Maxtumquli ijodini o'zbek va qoraqalpog' adabiyoti bilan qiyoslab o'rgangan. Olimning shoir adabiy merosiga bog'liq yuzdan ortiq maqolalari Turkmaniston, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston matbuotida bosilgan. Taniqli turkman adabiyotshunos olimi, shoir, filologiya fanlari doktori, professor Axmed Mammedov orqali ko'pgina turkman adiblari va olimlari bilan do'stlashgan. Bu do'stlik keyinchalik o'zbek-turkman adabiy aloqalariga xizmat qilgan. K.Quramboyevning biror kitobi yo'qki, unda turkman, o'zbek va qoraqalpog', umuman, turkiy adabiyotlarning so'z san'atkorlari safida Maxtumqulining nomi, asarlari tilga olinmagan bo'lsin. Olim shoir adabiy merosini O'zbekistonda targ'ib qilishdagi sermashaqqat mehnatlari uchun 2014-yilda "Maxtumquli Firog'iy" medali bilan mukofotlangan.

Maxtumquli she'riyati nafaqat shoirlarga ilhom baxsh etgan, balki adabiyotshunos olimlarni ham qo'liga qalam olib, she'riy satrlar bitishga undaganini filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimning "Maxtumquli ta'rifi" she'ri misolida ko'rish mumkin. Olim turkman xalqining faxru iftixori bo'lmish donishmand shoirga ta'rif berar ekan, uning ijodi butun dunyo tan olgan Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Shekspir, Tolstoy, Gomer, Gyotelardan qolishmasligini ajoyib satrlarga jo qilgan:

Maxtumquli – Navoiysi turkmanning,
Fuzuliy ham Jomiyi turkmanning,
Maxtumquli – Tolstoyi turkmanning,
Misli Pomir – baland bo'yi turkmanning. [1:118]

Maxtumqulining o'zbek shoiriday qalblarga singib ketganiga ko'p yillar bo'lgan. Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Birinchi sababi shuki, Maxtumquli hozirgi O'zbekiston hududida safarda bo'lgan. Buxoro, Xorazm madrasalarida tahsil olgan. Shoir she'rlarida Samarqand, Andijon, Qo'qon, Zarafshon, Namangan kabi shahar nomlari uchraydi. O'z davrida shoir she'rlari tilga olingan hududlarda keng tarqalgan. Keyinchalik bu she'rlarning o'zbek xalqi orasidan yozib olingan va devon shakliga keltirilgan nusxalarining Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti huzuridagi Sharq qo'lyozmalari markazi fondida "G'azaliyoti Maxtumquli", "Masnaviyoti Maxtumquli", "Ash'ori Maxtumquli" nomlari bilan saqlanayotgani fikrimizning tasdig'idir. Maxtumquli she'riyatining ijod ahli orasida keng yoyilishining ikkinchi sababi, she'rlarining oddiy uslubda, o'ta hayotiy nasihat g'oyalari bilan yo'g'rilganida, "inson qalbining Luqmoni hakimi" bo'lganida. Bu omillar shoirlarimizni Maxtumquli she'riyatiga yanada yaqinlashtirdi, ular uchun ilhom bulog'i vazifasini o'tadi.

Maxtumqulining she'riy dahosiga chuqur hurmat ko'rsatgan va boshqa shoirlarni ham undan o'rnak olib ijod qilishga chorlagan mashhur adiblardan biri Abdulla Oripov edi. Shoirning mana bu ikki bandi Maxtumquli she'riyat olamining o'ziga xos ta'rifi, ijod ahliga xitobdek yangraydi:

Shoir ukam, o'qi, Maxtumqulini,
Hikmatga yo'g'rilgan pandu nasihat.
G'animat demish u umr yo'lini,
Ha, umr o'tkinchi, umr g'animat.
Bepisand boqmagil qo'hna olamga,
Hali may ichmabsan qismat qo'lidan,
Faqat bilganingni olgil qalamga,
Buni ham o'rgangil Maxtumqulidan". [2]

Kuzatishimizcha, o'zbek she'riyatida Maxtumquli asrlariga munosabat ikki yo'nalishda davom etmoqda. Birinchisi - Maxtumqulining poetik obrazi yaratilgan bag'ishlov she'rlar. Mirtemirning "Barhayotlik", "Maxtumquli to'yida", "Yuz bir", M.Shayxzodaning "Maxtumquli", O.Erkinning "Topilmas", Q.Muhammadrizoning "Turkmanning", "Naylayin" she'rlari shular jumlasidandir. Ikkinchi turkum she'rlar ham borki, ular Maxtumquliga ijodiy ergashib yozilgan. Ya'ni Maxtumquli she'rlariga

o'xshatma, nazira yoki muxammas namunalari. H.Xudoyberdiyevaning "Mehmondir", I.Yusupovning "Maxtumquliga", "Qolmas", "Bo'lmasa", G.Matyoqubovaning "Maxtumqulidan", "Panoh", "Navro'zi olam derlar", "Topmassan", "Ko'nglimga", M.Kenjabekning "Chiqadir" she'rlari Maxtumqulidan ijodiy ta'sirlanish samarasi o'laroq yaratilgan. Tilga olingan she'rlarning ba'zilarida adabiy ta'sir belgilari yaqqol sezilsa, ayrimlarida bu ta'sirni aniqlash ancha murakkab. Ta'sir belgilari shakl ifodasidan ko'ra ko'proq ichki mazmunga singdirilgan bo'ladi. Ba'zan she'rda ikki holat ham uyg'unlashgan holda kelishi mumkin. Masalan, Halima Xudoyberdiyevaning "Mehmondir" she'ri shunday xususiyatga ega. She'r mazmun-mohiyati bilan ham, uslubiy talqin nuqtai nazaridan ham Maxtumqulining "Mehmondir" turkumidagi she'rlarini eslatadi. Maxtumqulida "Belga mehmondir", "Ko'zga mehmondir", "Tilga mehmondir" degan she'rlar bor. Har birida hayot va jamiyatdagi barcha narsalar, hodisalar o'zgarib, almashinib turishi, abadiy narsaning o'zi yo'qligi, inson umri ham xuddi fasllardek yangilanib borishi va har bir odam dunyoga mehmon yanglig' kelib, bir kun uni tark etishi, bularning barchasi hayot qonuni ekanligi haqidagi fikr ifodalaniadi. Maxtumqulining "Mehmondir" turkum she'rlari H. Xudoyberdiyevaga ta'sir ko'rsatgan. She'rlarning g'oyasi va mazmunini, shakl ifodasini ijodiy his qilgan. Bu ta'sir shoirada "Mehmondir" nomli bir she'r yozish istagini uyg'otgan. Maxtumqulining "Odam o'g'li bu dunyoga mehmondir" misrasi epigraf sifatida tanlangani she'rning g'oyasiga juda mos. She'rni o'qishingiz bilan oq Maxtumqulining "mehmondir" radifli she'rlari xayolingizga keladi:

Mehmon erur - asli dunyoda bari,
Rangi sarig' kuzak bizga mehmondir.
Yurakka mehmondir g'alayonlari,
Tizingdagi mador tizga mehmondir...

Mazkur satrlarning shakl va mazmun talqinida Maxtumqulining mana bu shoh misralarining ta'siri borligiga shubha qilmaymiz:

Qariyversang ketar belning quvvati,
Yigitlikning kuchi tizga mehmondir... [3:320]

Onalar to'g'risida, onalar va farzandlar munosabati, onani qadrlash, ulug'lash haqida ko'p she'rlar yozilgan. H. Xudoyberdiyeva bu mavzuni hech bir shoirga o'xshamaydigan bir shakl va mazmunda yoritadi. She'rda qo'llanilgan tasvir vositalari, timsollar ham yangi. Ona mehriga teng keladigan mehr yo'q. Ona ham omonat, bu dunyoga mehmon. Shunday ekan, uning qadriga etish, hayotligida e'zozlash har bir farzand uchun ham qarz, ham farz, degan g'oya she'rda xitobdagi yangraydi. Ona ko'ksini, qalbini qo'rg'onga, farzandini esa qo'rg'on ichidagi gulga o'xshatib, obrazli shaklda berish she'rning badiiy yuksakligi belgisidir.

Tilsiz bo'lsa hamki mungli onangiz,
Sanchabermang ko'ksiga tig', ta'nangiz,
Uning bag'ir qo'rg'onida tunangiz,
Oh, bu qo'rg'on, bolam, Sizga mehmondir.

She'rning poetik ma'nosi teran, tarbiyaviy ahamiyati ibratli. Uning har bir bandi onaning nidosi, farzandga va-siyatidek aks sado beradi.

Garchand bul kun bulbulning bir turiman,
Esayotgan shamolning hur-huriman –
Ketayotgan onalarning biriman,
Manim achchiq nalam sizga mehmondir.

Maxtumqulining "Mehmondir" mavzuidagi she'rlarining hech birida ona haqida so'z yo'q. Shoir, asosan, inson hayotining omonatligi, barcha narsalarning o'zgarib turishi, har bir narsaning mavjudligida qadriga etish zarurligidan so'z ochadi. O'zbek shoiri she'rining yana bir o'ziga xosligi shundaki, she'r konkret hayotga moslashtiriladi, lirik qahramonning kechinmalari milliy qadriyatlarimizga xos an'analar ruhida, o'zbekona qalb bilan yoritiladi. Maxtumquli she'rlarining badiiy qolipi

o'zbek shoiri uchun yurak to'liqlarini ifodalashda shakl vazifasini o'tagan, xolos. Bu ijodiy ta'sirning o'zgacha bir ko'rinishidir.

Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori Guliston Matyoqubova ham Sharq mumtoz adabiyotining mashhur shoirlari qatorida Maxtumqulini o'ziga ustoz deb biladi. Shoirning hayotbaxsh o'gitlari, insonparvarlik g'oyalari, xalqona poetik obrazlari, hikmatli so'zlari, betakror iboralar, til sohasidagi kashfiyotlari, boshqada badiiy xususiyatlari shoirlar ilhom beradi, ijodga, she'r yozishga undaydi. Uning "Panoh", "Navro'zi olam derlar", "Topmassan", "Ko'nglimga", "Maxtumqulidan" kabi she'rlari mana shu ilhom natijalaridir. Masalan, "Panoh" she'rida lirik qahramon ruhiy iztiroblardan qutulish uchun ma'naviy tayanchga ehtiyoj sezadi va Maxtumquliga murojaat etadi.

Men panoh izlayman Maxtumqulidan,
Bobo, deb ruhini chaqirar ko'ngil.

Ko'zlarim yoshidan, yoshim selidan,
Oldimda ko'rinar qiyin, og'ir yo'l... [4:41]

G.Matyoqubovaning boshqa bir turkum she'rlari borki, ular bevosita Maxtumquli she'rlari ta'sirida yozilgan. Shoiraning shunday she'rlari ham borki, bitta-ikkita misrasini o'qishingiz bilan o'qitilgan Maxtumqulining ayrim she'rlari xayolingizga keladi. "Topmassan", "Ko'nglimga" she'rlari xuddi shunday xarakterda. Ikki she'rga ham Maxtumqulidan epigraf qo'yilgan. Birinchisiga Maxtumqulining: "Aql bilan qancha ishni etma jam; Charx bir kun to'zg'itar, hisob topmassan" misralari epigraf qilib olingan bo'lsa, ikkinchi she'rga: "Ko'ngil, ne ish bitirding, kelding jahon ichinda" satrlari tanlangan. Maxtumqulida ham "Topmassan" radifli besh banddan iborat she'r bor. She'r barmoq vaznida yozilgan, o'n bir bo'g'inli.

Yigit bo'lsang, kezigil yaxshi ot bilan,
Bedov minib, sayr et parizod bilan,
Hayotingni o'tkaz jamoat bilan,
Yig'lab-yig'lab kelsang, javob topmassan... [3:345]

G.Matyoqubovaning "Topmassan" radifli she'ri tubdan boshqa mazmunda. She'rida lirik qahramon qalbini bezovta

qilgan, ruhan qiynalishiga sababkor kuch - nopoklik, xudbinlik, xiyonat, tuhmat, bevafoqlik illatlari qoralanadi. She'r inson sha'nini bulg'aydigan illatlardan ogoh bo'lishga chorlaydi. Ezgulikka xizmat, yomonlikka murosasizlik - mana lirik qahramonning shiori! Bu alg'ov-dalg'ovli tuyg'ular she'rda goh shiddatli, ba'zida bosiq ohangda beriladi. She'r kundalik hayotga hamnafas, zamonaviy ruhda. Insonlarda uchraydigan axloqiy pastkashlikka ramziy ma'noda keskin munosabat bildiriladi.

Nigohlarga qora zulmat ko'rinar,
Sadoqat izlasang, tuhmat ko'rinar,
Himmatga malomat, illat ko'rinar,
Baxt egasi - humoyun qush topmassan...

Guvoh bo'layotganingizdek, Maxtumquli she'ridagi nasihat, ezgulikka xizmat qilish g'oyasi G. Matyoqubova talqinida butunlay boshqa maqsadga, inson zotiga yot holatlarni qoralash g'oyasiga yo'naltiriladi. Bu jarayonda Maxtumqulining poetik tajribasi o'zbek shoirasi uchun o'ziga xos ibrat bo'lgani aniq.

Maxtumqulini o'ziga ustoz sanagan yana bir taniqli shoirlardan biri G'ayrat Majid "Ustodim Maxtumquli" nomli she'rida buyuk mutafakkir ijodiga oshiqchilikni, undan ko'p narsalar o'rganganligini e'tirof etadi:

Bilgum, shogirdlikka munosibmasman,
Bol yig'gim keladi so'zlar gulidan.
Netay men shaydoman, oshiqman, mastman,
O'rgandim ustodim Maxtumqulidan. [5:136]

Buyuk mutafakkir shoir Maxtumqulining 300 yilligi asnosida biz faqat ayrim shoirlar, tarjimonlar va olimlar faoliyatiga nazar tashladik xolos. Aslida o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida shoir adabiy merosidan ilhomlangan, unga ijodiy ergashgan va ta'sirlangan qalam ahlari talaygina. Kichik maqola doirasiga ularning barchasini qamrab olish imkoni yo'q. O'ylaymizki, Maxtumqulining pand nasihat g'oyalari yo'g'rilgan boy adabiy merosi hali ko'plab ijodkorlarga ilhom manbai bo'lishi so'zsiz.

Adabiyotlar

1. Б.Карим. Махтумқули – инсоният шоири. –Тошкент: "Мухаррир". 2024.
2. Ўзбекистон овози, 2010 йил, 18 феврал
3. Махтумқули. Булбул ноласи. (Туркман тилидан Э.Очилов таржимаси). -Тошкент: "Ҳилол-нашр", 2014.
4. Матёкубова Г. Йўлларингга чиқдим. –Нукус: 1997.
5. Ғайрат Мажид. Беш дарс. –Тошкент: "Шарк", 2021.

REZYUME. Mazkur maqolada buyuk turkman shoiri Maxtumquli-Firog'iy she'riyatining o'zbek va qoraqalpoq adabiyotiga ta'siri masalasi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В этой статье рассматривается влияние поэзии великого туркменского поэта Махтумкули Фирогий на узбекскую и каракалпакскую литературу.

SUMMARY. In this article discusses the influence of the great Turkmen poet Makhtumquli Firoghi's poetry on Uzbek and Karakalpak literature.

И.ЮСУПОВ ЛИРИКАЛАРЫНДА ЗАТЛАСЫҢ АРҚАЛЫ ЖАСАЛҒАН МЕТАФОРЛАР

Г.Отенбергенова – ассистент оқытушы

Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер хәм мәденият институты Нөкис филиалы

Таянч сўзлар: метафора, поэтик метафора, лингвистик метафора, индивидуал – муаллиф метафора, индивидуал услуб метафораси.

Ключевые слова: метафора, поэтическая метафора, языковая метафора, индивидуально-авторская метафора.

Key words: metaphor, poetic metaphor, linguistic metaphor, individual - author metaphor, individual style metaphor.

Метафора поэзияның ең баслы көркемлеў куралы ретинде шайырлар дөретиўшилигиндеги шығармалардың көркем тилинде ислетилип, белгили бир образды, хал-жағдайды, тәбият көринислерин, лирикалық қаҳарманның гүйзелис, күйиниш, сүйиниш хәм т.б. белгилерин көркемлеў максетинде усы тропқа жүгинеди. Метафора шығарманың экспрессивлиги менен эстетикалық тәсири күшейтиў ушын қолланылады.

Метафора тиллик қубылыс болса да, өзиниң көркемлик қәсийетлерин поэтикалық пикирлеў арқалы жүзеге асырады. Ол поэтикалық пикирлеўде көркем образ сыпатында қабыл етиледі. Метафора предметти қайта атап қоймай, оны басқа предметке салыстырады, ойымызда қайтадан аталып атырған нәрсе ҳаққында

жанлы образ жасалады. Солай екен, метафораның поэзиядағы орны хәм әҳмийети жоғары екенлигин көриўге болады.

Рус алымы А.Потебня метафоралық – «тилдің тураклы өзгешелиги» дегенинде хәр қандай сөзди образ деп таныўды атап өтеди. Алым образ хәм аңлатып атырған мәни басқа-басқа нәрселер екенлигин ескерте отырып, жаңадан пайда болған метафораны аңлайды хәм мифологиялық пикирлеўдің жоғалып баратырғанын атап өтеди [2:341]. Мифологиялық пикирлеўдің жоғалып барыўы менен метафораның пайда болыўы арасындағы байланыслылық бар екенлигин О.Фрейденбергте дыққат аўдарады. Ол буны мифке исенимнің жоғалыўы деп емес, образлы пикирлеўдеги